

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi

Mahkamov Dostoning

Jahon geografiyasi fanidan

**YEVROPA MAKROMINTAQASI
mavzudagi**

KURS ISHI

ILMIY RAHBAR

g.f.n X. Mirzahmedov

Namangan-2014

Mavzu: YEVIROPA MAKROMINTAQASI

Reja:

Kirish

1. Yevropa regionining tabiiy iqtisodiy geografik o'zni
2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.
3. Yevropa regionini, aholisi va urbanizatsiyasi.
4. Yevropaning sanoatini ishlab chiqarishini va qishloq xo'jaligini umumiy xususiyatlari
5. Yevropa mintaqasi Subregionlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Yevropa qit'asining maydoni 10 mln. kv km ni tashkil etadi. Shundan 5,9 mln. kv km ga teng hududda Rossiyadan tashqari Yevropadagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, sobiq Ittifoq respublikalari joylashgan. Rossiya Federatsiyasi jami hududining 4,1 mln. kv km ga teng qismi Yevropa qit'asiga to'g'ri keladi.

Yevropa qit'asi Shimoldan Janubga (Shpitsbergen orolidan O'rta dengizda joylashgan Krit oroligacha) 5 ming km ga, G'arbdan Sharqqa (Portugaliyaning Atlantika okeani sohilidan Rossiyaning Ural tog'laridagi Yevropa — Osiyo qit'alari chegarasigacha) 6 ming km ga cho'zilgan.

Yevropa aholisi (Rossiya aholisini hisoblamaganda) 2004- yil boshida 584 mln. kishirii tashkil etdi yoki 1900- yilga nisbatan (300 mln) deyarli ikki martaga ko'paydi. Lekin, dunyo aholisi sonidagi uning salmog'i XX asr ichida 18% dan 9% gacha kamaydi.

Yevropa nisbatan kichik qit'a bo'lsa ham, uning geografik o'rni bu yerda xilma-xil iqlim mintaqalari va tabiat zonalarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qit'aga xilma-xil tabiiy sharoit xosdir.

Yevropa har xil relyef shakllari — tekislik va pasttekisliklar, qir va tog'lar mavjudligi bilan ajralib turadi. Yevropada 26 ta har xil morfostruktura, 9 ta tabiiy-geografik o'lka ajratiladi. Yevropada o'rtacha balandlikdagi tog'lar esa ancha katta maydonni egallaydi. Ularning ko'pchiligidan dovonlar orqali transport yo'Uari o'tkazngan.

Yevropa hududi g'arb, shimol va janub tomonlardan dengiz va okeanlar suvi bilan o'ralgan. Shuning uchun ham Yevropada(Rossiyani hisobga olmaganda) dengizdan 600 km uzoqlikda bo'lgan joy yo'q. Jumladan, Buyuk Britaniyaning katta qismida aholi dengizdan atigi 60—80 km ga teng uzoqlikda istiqomat qiladi. Boshqa qit'a va materiklardan farqli o'laroq, Yevropa hududining 28% i inson tomonidan o'zlashtirilmagan, xolos.

Yevropa hududi G'arbiy, Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaga taqsimlanadi.

Ushbu regionlar ichida iqtisodiy jihatdan G'arbiy va Shimoliy Yevropa eng rivojlangan, Sharqiy Yevropa esa nisbatan bo'sh rivojlangan hisoblanadi.

1. Yevropa regionining tabiiy iqtisodiy geografik o'rni

Xorijiy Yevropaning maydoni 5,9 mln kv.km.ga teng. Xorijiy Yevropaning xududi shimoldan janubga (SHipsbergen orolidan Krit oralig'igacha) 5 ming km.ga, g'arbdan sharqqa 3 ming km.dan ortiqqa cho'zilgan.

Xorijiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy geografik o'rni ikki asosiy xususiyati bilan belgilanadi. Birinchidan bu mamlakatlarning bir-biriga nisbatan qo'shni ekanligi o'ziga xos xususiyatidir. Xududning kichikligi, chegaralarning yaqinligi va transportning yaxshi yo'lga qo'yilganligi tufayli bu mamlakatlar yo bevosita chegaralanadi, yoki kichik masofagina ularni o'zaro ajratib turadi. Buning ustiga bu chegaralar ko'proq shunday joylardan o'tadiki, ular transport aloqalari uchun uncha to'siq bo'la olmaydi. Ikkinchidan, aksariyat mamlakatlar dengiz bo'yida joylashgan bo'lib, ularning ko'pi eng gavjum dengiz yo'llari yaqinidadir.

Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Daniya, Norvegiya, Islandiya, Portugaliya, Ispaniya, Italiya, Gretsiyaning butun hayoti dengiz bilan chambarchas bog'liq.

Xorijiy Yevropa nisbatan kichik xudud bo'lsa ham, uning geografik o'rni bu yerda xilma-xil, iqlim mintaqalari va tabiat zonalarining shakllanishiga sabab bo'ladi. shuning uchun ham qit'aga xilma-xil tabiiy sharoit xosdir.

Xorijiy Yevropani har-xil rel'ef shakllari mavjud. Asosan tekislik va pastliklar, qirlar va tog'lar mavjudligi bilan ajralib turadi.

Xorijiy Yevropa xududini g'arb, shimol va janub tomonlardan dengiz va okeanlar o'rab turadi. Xorijiy Yevropa xududining 28 % inson tomonidan o'zlashtirilgan xolos.

Xorijiy Yevropada sanoatning rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko'p jihatdan bu yerdagi foydali qazilmalar bilan bog'liq.

Evropa xududi g'arb, shimol va janub tomonlardan dengiz va okeanlar suvi bilan o'ralgan. SHuning uchun ham Yevropada, (Rossiyani hisobga olmaganda) dengizdan 600 km uzoqlikda bo'lgan joy yo'q. Buyuk Britaniyaning katta qismida aholi dengizdan atiga 60-80 kmga teng uzoqlikda istiqomat qiladi.

2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.

Evropa tabiiy resurslarining barchasi bilan ta'minlangan. Xorijiy Yevropada yer va suv resurslaridan intensiv tarzda foydalanilmoqda, tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun umuman qulay xisoblanadi, Yevropa biologik resurslar, Ayniqsa o'rmon resurslari bilan tabiat yaxshi ta'minlangan. Bu yerda shimoliy o'rmon mintaqasining bir qismi Rossiya, Finlandiya, SHvetsiya qisman Norvegiya, Buyuk Britaniya davlatlarida joylashgan.

Agroiqlim resurslari, O'rta Yevropa va Janubiy Yevropada qishloq xo'jaligini intensiv rivojlanishiga imkon beradi.

Evropa meniral resurslarga boydir. Unda meniral resurslarning sanoat axamiyatiga ega bo'lgan konlari topilgan.

Yoqilg'i energetika resurslaridan toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz, gidroresurslardan foydalanilmoqda.

Toshkumir yirik konlari Germaniya, Buyuk Britaniya va Ukrainada ochilan. Zahiralari Buyuk Britaniyada 190 mlilliard tonnadan, GFR da salkam 300 mlilliard tonnagacha boradi. qo'ng'ir ko'mirning yirik konlari, GFR va Pol'shada 180-185 mlilliard tonna mavjud.

Evropa neft va tabiiy gazning ulkan konlariga ega bo'lmas ham, har holda qit'alar ichida oxirgi o'rinda qolmagan. Hozirgi vaqtda qazib olinayotgan neft miqdori 300 mln.tonna. Gaz miqdori 200 mlilliard kub metrdan oshib ketdi. Neft va gaz konlarining asosiy qismi Buyuk Britaniya va Norvegiyaga tegishlidir.

Neft va tabiiy gaz Niderlandiya, Belgiya, Ruminiya, Ukraina, Belorussiya, Frantsiya, Italiya mamlakatlarida ham qazib olinadi.

Temir rudasining yirik konlari SHvetsiya, Frantsiya va Ukrainada joylashgan.

Marganets rukdasining yirik koni ham Ukrainada ochilgan. Yevropada xususan, Pol'sha, Bolgariya, Ruminiyada miss, lyulitden, ruda konlari juda ko'p. Simob rudalari Italiya, Ispaniya, Ukrainada qazib olinadi. Yevropadva xilma-xil hom Ashe resurslarining konlari mavjud. Italiya, Ukrainadagi oltingo'girt, Ukraina, Belorussiyadagi kaliy va Osh tuzi konlari eng salmoqlidir.

Xorijiy Yevropaning siyosiy, ma'muriy xususiyatlari. Dune siyosiy xaritasida Yevropaning o'z o'rnini bor. XX asrning 80 – yillari bu yerda 32 ta suviren davlat mavjud bo'lgan. 90 – yilning dastlabki davrida esa mamlakatlarning umumiy soni 40 taga yetdi. Sobiq Ittifoq tarkibidan Boltiqbo'yi davlatlarining ajralib chiqishi, Yugoslaviya va CHexoslovakiyaning bo'linishi mamlakatlar sonining ko'payishiga sabab bo'ldi.

Evropa kichik mamlakatlar o'lkasidir. XXI asr boshida (Rossiyani hisobga olmaganda) jami 45 mamlakat mavjudligi qayd etildi.

Jahondagi mitti davlatlar, Andorra, San-Marino, Monoko, Vatikan, Lextenshteyn, davlatlari Yevropada joylashganligi bilan ajralib turadi, mazkur davlatlardan tashqarii xududi nisbatan kichik mamlakatlardan 10 tasining har birining maydoni 50 ming km.km ham kichikdir. SHular qatoriga Belgiya, Niderlandiya, Daniya, SHEvetsariya, Slavakiya, Malta, Makidoniya, Albaniya va Estoniya kiradi.

Evropada 10 mamlakat xududi 50 mingdan 100 ming kv.km.gacha boradi. Bunga Islandiya, Irlandiya, Avstriya, Vengriya, CHexiya, Latviya, Litva, Xorvatiya, Bosniya va CHerchegovina, Portugaliya mamlakatlaridan iboratdir.

Norvegiya, SHvetsiya, Fillandiya, Buyuk Britaniya, GFR, Italiya, Pol'sha, Ruminiya, Bolgariya, Serbiya va CHernegoriya Federatsiyasi va Gretsiyaning ya'ni jami 12 davlatning maydoni 100 mingdan 500 ming kv.km.gacha o'zgaradi.

Faqat Frantsiya va Ispaniya davlatlarining xududi 500 ming kv.km.dan oshadi.

Evropada har-xil shaklga ega bo'lgan mamlakatlar mavjud. Norvegiya davlati meridian yo'nalishi bo'yicha eng uzun 1750 km.da joylashgan mamlakatdir. SHunday mamlakatlar qatoriga SHvetsiya 1600 km, Finlandiya 1160 km, Frantsiya 1000 km, Buyuk Britaniya 955 km, GFR 850 km kiradi, shu qatori Bolgariya va Vengriyada cheka nuqtalari orasidagi masofa 500 km dan oshmasligini aytib o'tish joizdir.

Niderlandiya davlati esa bu ko'rsatkichi atiga 300 km ni tashkil etadi, Yevropa davlati jahon tarixida birinchi bor, Yevropa Ittifoqi doirasida o'ndan ortiq

davlatlar birlashtirilib ulkan miqyosga ega bo'lgan yagona iqtisodiy va siyosiy makon shakllantirilmoqda.

3. Yevropa region, aholisi va urbanizatsiyasi.

Evropada murakkab demografik vaziyat mavjud bo'lib, u mamlakatlar va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosidagi eng past darajadagi tug'ilish va tabiiy o'lish mavjud bo'lgan, Yevropaga hozirgi vaqtda barqaror tarzda demografik va tabiiy o'sish suratlari XX asrning ikkinchi yarmida keskin qisqardi.

Tug'ilish 26-28 promilledan, 2 – 4 promillega tushib qoldi, hozirgi vaqtda tug'ilishning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari, Irlandiya, Islandiya, Mal'ta va Makedoniya mamlakatlariga xosdir. O'rtacha tug'ilish darajasi Avstriya, SHvetsariya, Nederlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Gretsiya, Fillandiya, Frantsiya, Slavakiya, SHvetsariyada kuzatilmoqda. Tug'ilimsh darajasi keskin pasayib, tabiiy o'sish manfiy ko'rsatkichga ega bo'lgan mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Bolgariya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Ukraina, Ruminiya, Estoniya, Moldova, Vengriya davlatlaridir.

Davlatlarda tug'ilish yoshidagi ikki ayolga tug'ilgan ikki uch bola to'g'ri kelmoqda.

Evropa aholisi o'rtasidagi umumiy o'lim nisbatan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Aholining har 1000 kishiga nisbatan o'lganlar soni 2003 yil 12 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholining yoshi, jinsi tarkibidagi keksa yoshdagilarning o'lishi yuqori bo'lgan mamlakatlar Germaniya, SHvetsiya, Frantsiya, Belgiya, Norvegiya, Nederlandiya, Finlandiya va boshqalardir. Aholi tarkibida bolalar va yoshlar salmog'i nisbatan katta bo'lgan mamlakatlar Portugaliya, Pol'sha, Gretsiya, Italiya, Albaniyada umumiy o'lim bir muncha pastdir.

Vengriyada aholi soni 1980 – 2003 yillarda 220 ming kishiga qisqardi, Ruminiyada har bir tug'ilgan go'dakdan 23 tasi bir yoshga yetmasdan o'lmoqda. G'arbiy Yevropada bu ko'rsatkich 6-10 bolaga to'g'ri keladi.

Evropa aholi migratsiyalarining ham yirik markazi hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan beri Yevropa aholisi okean orti mamlakatlari ga ko'chib o'tadigan eng katta region hisoblanadi.

G'arbiy Yevropa dunyodagi eng ko'p aholini qabul qilish markaziga aylandi. G'arbiy Yevropada aholining oqib kelish sabablarini (chet El va mahalliy geografiya o'rganib quyidagi xulosaga keldilar) migratsiyalar asosan katta pul topish hamda mehnat va hayotning qulay sharoitlari izidan keladi. Frantsiyada migratsiyalarning 38 foizi Parijda, Belgiyada esa ularni 24 foizi Brussel'da yig'ilgan. Yevropa mamlakatlarida aholini taqsimlashning zamonaviy shakli shahar aglomigratsiyasi vujudga kelgan. Ularning taqsimlanishi quyidagicha, Frantsiyada – 74, GFR 72, Buyuk Britaniya – 68 ta, Italiya -56, Ispaniyada esa 37, Belgiyada 10 ta shahar alomiratsiyasi joylashgan. Buyuk Britaniya eng asosiy katta London aglomigratsiyasi yoki konorbanizatsiyasi bo'lib, unda 12 mln kishi istiqomat qiladi.

Xorijiy Yevropa urbanizatsiyasining xarakterli xususiyati-aholining yirik shaharlarida va shahar aglomiratsiyasida juda zich tarqalganligidir. SHahar aglomiratsiyalari AqSH bilan Yaponiyani qo'shib hisoblaganda, horijiy Yevropada ulardagidan ko'p. Bulardan eng yiriklari London, Parij va Reyn-Rur aglomiratsiyalaridir.

Xorijiy Yevropaning aholisi milliy tarkibiga ko'ra nisbatan bir xildir. Regiondagi 62 millatning aksariyat qismi hind Yevropa til oilasiga kiradi. SHunisi ham borki, Slovyan, German til guruhlarining anchagina o'zaro o'xshash tomonlari bor.

Xorijiy Yevropa dunyoning eng zich joylashgan regionlaridan biridir. Bunda avvalo shahar geografiyasiga bog'liq. SHaharlarda o'rta hisobda jami aholining 70 foizidan ortig'i, ayrim mamlakatlarda esa 80 % va 90 % dan ortig'i yashaydi.

SHaharning umumiy soni minglab hisoblanadi, ular xudud bo'ylab zich joylashgan. Ming yillar davomida G'arbiy Yevropa shahar tipi vujudga keldi. Regionda urbanizatsiya darajasi XX asr oxiriga kelib 85 % ga yetishi mumkin.

Evropa bugungi dunyoda iqtisodiy va madaniy salohiyatining ulkanligi va serqirraligi, industrial tarmoqlari aholi va shaharlarning juda yuqori darajada rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi.

Xorijiy Yevropa bir butun region sifatida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning xajmi, tovar va xizmat ko'rsatish eksport, oltin hamda valyuta zahiralar, xalqaro turizmning rivojlanishi jihatidan johon xo'jaligida birinchi o'rinda turadi.

4. Yevropaning sanoatini ishlab chiqarishini va qishloq xo'jaligini umumiy xususiyatlari

Xorijiy Yevropaning iqtisodiy qudratini birinchi navbatda G'arb mamlakatlarining katta yettiligiga kiruvchi to'rt davlat – GFR, Frantsiya, B.Britaniya, Italiya belgilaydi. SHu mamlakatlar turli tarmoqlar ishlab chiqarishning eng keng majmuiga ega.

Sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyingi ikkinchi o'rinda Kime sanoati turadi. Eng kimyolashgan davlat ba GFR davlatidir. Eng yirik neft Kime-Nederlandiyaning Poterdam shahri rayonida joylashgan. qora metallurgiya Germaniya, B.Britaniya, Frantsiya, Ispaniya, Belgiyada rivojlangan. Rangli metallurgiyaning asosiy markazlari Italiya va Germaniyadir. Yengil sanoatning yirik markazi B.Britaniyadir. chorvachilik regionining juda ko'p mamlakatlarida shu jumladan Daniyada yuqori darajada rivojlangan. Sarig' yog', sut, pishloq, tuxum yetishtirish va uni eksport qilish bo'yicha dunyoning eng yirik davlati hisolanadi.

Janubiy Yevropada dehqonchilik chorvachilikdan ustun ahamiyatga ega. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya va boshqa mamlakatlar hisoblanadi.

qishloq xo'jaligi mahsulotining asosiy turlari bo'yicha o'z ehtiyojlarini to'la qondirib, bu mahsulotlarning bir qismini tashqi bozorda sotishda Xorijiy Yevropa qishloq xo'jaligining yetakchi o'rnini egallaydi. qishloq xo'jaligining Skandinaviya, Finlandiya va B.Britaniyada tarqalgan. Tabiiy va tarixiy sharoitlar ta'sirida regionda qishloq xo'jaligining uch tipii, SHimoliy Yevropa tipii, uchun

intensiv sut chorvachiligining ustunligi, unga xizmat ko'rsatuvchi ziroyatchilik uchun esa OZUqa bop ekinlar va jaydari bug'doy yetishtirishga xarakterlidir.

O'rta Yevropa tipii, esa sut va sut go'sht chorvachilik, cho'chqachilik hamda parrandachilikning ustun turishi bilan ajralib turadi. qishloq xo'jaligining janubiy Yevropa tipii uchun ziroyatchilik ustun bo'lib chorvachilikni ikkinchi o'ringa tushib qolishi xosdir.

Xorijiy Yevropa mamlakatlarining yuqori darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. Regionda taransportning barcha turlari taraqqiy etgan. Dunyodagi jami aloqa yo'llari, transport korxonalari va transport vositalari birgalikda jahon transport tizimini tashkil qiladi, jahon taransportida 100 mln dan ortiq, Yevropa mamlakatlarida 20 mln kishi ish bilan band. Yevropa mamlakatlarida o'rtacha yiliga 20 mlliard tonna yuk va 200 mlliard kishi taransportning barcha turlari yordamida tashiladi. Ushbu jarayonda 130 mln avtomobillar, salkam 10 ming dengiz kemalari, 2 mingdan ortiq samalyot, 40 ming lakamotiv ishtirok etadi.

Evropada yo'lovchi tashish transportida avtomobil transporti yetakchilik qiladi. unga jami tashilgan yo'lovchilarning deyarli yarmi to'g'ri keladi. Dengiz transporti yuk tashishda tengsiz hisoblanadi. Uning yukdagi ulushi 62 % ni tashkil etadi. Yevropada temir yo'l transporti Rossiya, GFR, Frantsiya va boshqa ko'pchilik mamlakatlarda rivojlangan. Rossiyada 87 ming km, GFR da 44 ming km, Frantsiyada 33 ming km temir yo'l qurilgan. Temir yo'llarning katta qismi elektrlashtirilgan. Avtomobil transportining rivojlanishi unda mavjud mashinalar soniga bog'liq. GFR 33 mln dona avtomobil ishlab chiqaradi, Italiyada 31 mln, Frantsiyada 28 mln, Rossiyada esa 18 mln, Ispaniya 16 mln dona avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar hisoblanadi.

Evropa mamlakatlarida dengiz transporti rivojlangan. Dengiz transporti Niderlandiya, Frantsiya, B.Britaniya, Italiya, Rossiya, Pol'sha, SHvetsiya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda rayonlararo va xalqaro ahamiyatga ega.

Havo transporti B.Britaniya, Frantsiya, GFR va Rossiyada yaxshi rivojlangan bo'lib, bir yilda 6 mln yo'lovchini tashiydi.

Xorijiy Yevropa mamlakatlari xalqaro aloqalarini rivojlanishida yetakchi mavqelarga ega. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning tayangan va yo'nalishlaridan biri xalqaro savdodir. Xalqaro savdoning muhim xususiyatlaridan biri unga tovarlar tarkibiga salmog'i va yo'nalishlarining doimo o'zgarib borishidir. Dunyoda 200 ta eng katta bankning 60 tasi Xorijiy Yevropadadir.

Xorijiy Yevropa xalqaro aloqalarining eng ommaviy yirik sohasi xalqaro turizmdir. Xorijiy Yevropa xalqaro turizmning bosh rayonidir. Turizm bo'yicha rekordamen mamlakat Ispaniyadir (yiliga 50 mln turist). Jahon savdosi ham geografik xilma-xillikka ega. Bunda ikki yo'nalish ajralib turadi. Jahon bozorida qatnashadigan mintaqalar ya'ni G'arbiy Yevropa, SHimoliy Amerika, ayrim SHarqiy Osiyo mamlakatlari va boshqalar xalqaro savdoga asosan yuqori texnologik asosida ishlab chiqarilgan turli ishlab chiqarish vositalari va aholi iste'mol buyumlarini yetkazib beradi.

Xalqaro turizm Yevropa mamlakatlarida har jihatdan taraqqiy etgandir. Jahon turizmining 60 foizi ana shu qit'a xissasiga to'g'ri keladi. Xalqaro turizm rivojlanib borayotgan mamlakatlar ham o'sib bormoqda. Ular xissasiga jahon turistlarining 17 foizi to'g'ri keladi.

6. Yevropa mintaqasi Subregionlari

Yevropa – qit'a, Osiyo bilan birgalikda yagona Yevrosiyo materigini tashkil qiladi. Yevropa hududida 39 ta davlat joylashgan, bu mamlakatlar hududlarining katta-kichikligi, aholisi soni, tabiiy shart-sharoiti va foydali qazilmalari, davlat tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi davlat tuzilishiga ko'ra respublika, 12 ta mamlakat esa monarxiya shaklida (Andorra bahsli bo'lib, monarxiya deb hisoblansada, amalda respublikadir). Yevropa makroiqtisodiy xalqaro siyosiy hayotda va dunyo xo'jaligi tizimida muhim rol o'ynab keladi.

Nafaqat bugungi kunda, balki kishilik jamiyati taraqqiyotining ko'p ming yillik tarixida ham Yevropani shartli ravishda 2 ta mintaqaga, ya'ni G'arbiy

Yevropa va SHarqiy Yevropaga (Markaziy va SHarqiy yoki Markaziy-SHarqiy Yevropa) bo'lish mumkin (MDH mamlakatlari nisbatan).

G'arbiy Yevropa mintaqasi. Maydoni – 3710,3 ming km², aholisi – 407,4 mln. kishi (2008 yil, iyul) G'arbiy Yevropa dunyodagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mintaqaga bo'lib, «Katta yettilik» deb yuritiluvchi mamlakatlardan 4 tasi Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya shu mintaqada joylashgan. SHuningdek, aholisi 10 mln. kishidan oz bo'lgan mamlakatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Beshta mitti davlatlar Andorra, Monako, San-Marino, Lixtenshteyn, Vatikan ham G'arbiy Yevropa mintaqasiga mansub. Ayni vaqtda, Buyuk Britaniya mustamlakasi Gibraltar Buyuk Britaniya va Ispaniya o'rtasidagi bahsli hududdir.

G'arbiy Yevropa mintaqasi iqtisodiy-geografik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi 3 ta submintaqaga – O'rta, SHimoliy va Janubiy Yevropaga bo'linadi. Bu submintaqalar o'rtasida O'rta Yevropa submintaqasi iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

- **O'rta Yevropa** submintaqasi tarkibiga 5 ta – Germaniya, Avstriya va SHveytsariya federativ, Frantsiya va Irlandiya unitar respublikalari, 5 ta monarxiya – Buyuk Britaniya, Belgiya va Niderlandiya qirolliklari, Lyuksemburg gertsogligi, Lixtenshteyn knyazligi kiradi. Maydoni 1422,2 ming km², aholisi 253,3 mln kishi.

O'rta Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy-geografik holati juda qulay bo'lib, hududlarning biqiq joylashganligi, qo'shnichilik holati, dengizga chiqish imkoniyatlarining kattaligi hatto ichki rayonlar ham daryolar va quruqlik orqali dengizga chiqishi bilan ajralib turadi.

Foydali qazilmalar bilan ancha bo'sh ta'minlangan. Ichki resurslar 10% atrofidagi ehtiyojlarni qoplaydi, xolos. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ko'mir zahiralarining 25% submintaqaga to'g'ri keladi. XX asr 60-yillaridan boshlab Buyuk Britaniya va Niderlandiyaga qarashli SHimoliy dengiz shelf mintaqasidan yirik neft va tabiiy gaz havzalari topildi hamda foydalanish boshlandi. SHunga qaramay, neft va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyoj import hisobiga qondiriladi. Energetika xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojni Frantsiya va Buyuk Britaniya uran

rudasi hisobiga qoplaydi. Lyuksemburgda temir rudasi, shuningdek, qalayi, polimetall rudalari mavjud. Boshqa foydali qazilmalarning zahirolari kam.

O'rta Yevropa submintaqasida Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg va GFRda suv resurslari bilan ta'minlash darajasi bir muncha keskin muammo bo'lsa, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, SHveytsariya va Irlandiya to'la ta'minlanganligi bilan ajralib turadi. Yevropa davlatlaridagi mavjud 20% gidroresurslar asosan uchta mamlakat – Frantsiya, Avstriya va SHveytsariyaga to'g'ri keladi. Frantsiyada 33%, Avstriyada 60% va SHveytsariyada 75% hosil qilinayotgan elektr energiyasi gidroresurslar hissasiga to'g'ri keladi.

O'rta Yevropa o'rmon resurslariga ancha kambag'al bo'lib, hududning 20% o'rmonlar bilan qoplangan (qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanishi bilan o'monzorlar kesib yuborilgan). Avstriyada – 4%, Buyuk Britaniya va Niderlandiyada – 2,5% va Irlandiyada – 3% hudud o'rmonlardan iborat.

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay. Tarkib topgan rel'ef ziroatchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Deyarli qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar haydaladi (SHveytsariyada-10% dan, Frantsiya, GFR va Buyuk Britaniyada 30% ga qadar). Ammo aholi jon boshiga haydaladigan yerlar juda oz bo'lib, 0,1 ga.dan 0,3 ga.gacha to'g'ri keladi.

O'rta Yevropa submintaqasida past va o'rtacha unumdor tuproqlar tarqalgan bo'lib, yuqori agrotexnika asosida unumdorlik yaxshilanadi. Iqlimiy xususiyatlar ko'plab qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish imkonini beradi.

O'rta Yevropa submintaqasi tabiiy-rekreatsion resurslarga boyligi (tarixiy-arxitektura yodgorliklariga ham) va o'zlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Xorijiy Yevropadagi eng baland Al'p tog'laridan Yevropadagi eng past tekislik Niderlandiyaga, Frantsiyaning subtropik O'rta yer dengiz sohillaridagi sovuq va «nam» Irlandiyaga qadar nihoyatda xilma-xil tabiiy sharoit hamda rivojlangan infratuzilmalar tizimi (servis) ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish imkonini beradi. Qo'riqlanadigan hududlar – qo'riqxonalar, rezervatorlar, milliy parklar va boshqa shakllardadir.

Aholisi. O'rta Yevropa aholisi etnik jihatdan nihoyatda xilma-xil. Aholining katta qismi roman-german tillar oilasiga kiradi. Ozroq kelmt gruppasi, irlandlar, gallar, britanlar va basklardan iborat. Mamlakatlarning ko'pchiligi bir millatlidir. O'rta Yevropa submintaqasi dunyodagi demografik holat salbiy bo'lgan hudud bo'lib, tabiiy ko'payish manfiy ko'rsatkichga ega. Bu jarayon aholi yosh tarkibida qariyalar salmog'ining yuqoriligi, oilalarning kam bolaligi hamda aholi jinsiy tarkibida ayollar salmog'ining yuqoriligi bilan bog'liq.

O'rta Yevropa submintaqasida aholi zich joylashgan bo'lib (1 km² ga 160 kishi va undan yuqori) yer sharidagi yuqori urbanizatsiyalashgan hududlardan biridir. Urbanizatsiya ko'rsatkichi 75-80% va hatto undan yuqoridir. Yirik sanoat-shahar aglomeratsiyalari shakllangan. Dunyodagi eng yirik Yevropa megalopolisi (70 mln.dan ortiq aholi yashaydi) Buyuk Britaniya janubidan Italiya shimoliga qadar cho'zilgan bo'lib, 12 ta millioner shaharlarni o'z tarkibiga oladi.

O'rta Yevropa submintaqasi industrial rivojlangan hudud. Xo'jalik tarkibi deyarli bir xil. Mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi qurilish bilan birgalikda 40% dan 50% ga qadar (Irlandiyada 33%), qishloq xo'jaligining hissasi esa 2-5% dan iborat. Iqtisodiy faol aholining tarmoqlararo bandlik yo'nalishi iqtisodiyot tarmoqlaridagi nisbatga mosdir.

O'rta Yevropa mamlakatlari xalqaro iqtisodiyotda katta o'rin tutadi. Submintaqa iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining 7,5% ni tashkil etgani holda uning sanoat mahsulotidagi ulushi 25% ga to'g'ri keladi. Submintaqa G'arbiy Yevropa sanoat mahsulotining 1/4 qismini yetkazib beradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar savdo flotining 17%, tashqi savdo aylanmasining 35-36% hamda iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oltin va valyuta zahiralarining (GFR, SHveytsariya, Buyuk Britaniya, Frantsiya) 1/3 qismi submintaqa hissasiga to'g'ri keladi.

O'rta Yevropa submintaqasi sanoati yuqori darajada monopollashgan bo'lib, o'nlab yirik transmilliy kompaniyalar va xalqaro moliya-kredit institutlariga ega. Dunyodagi eng yuqori malakali ishchilar to'plangan va ayni vaqtda xorijdan

ishchilarni «import» qiladigan hudud (xorij ishchi kuchi 8-9 mln. kishi bo'lib, asosan ulardan past malakali, kam ish haqi to'lanadigan sohalarda foydalaniladi).

Sanoat asosan GFR, Frantsiya va Buyuk Britaniyada to'plangan (bu mamlakatlar hissasiga 90% ortiq sanoat mahsuloti qiymati to'g'ri keladi). Dunyoda eng yirik sanoat-shahar aglomeratsiyalari – GFR (Reyn vodiysida – Rur), Buyuk Britaniya (Markaziy Angliya va Janubi-SHarq), Frantsiya (Parij va SHimoliy Frantsiya) hududlarida shakllangan. SHuningdek, Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburg ham murakkab sanoat tarmoq tarkibiga va yuqori darajada rivojlangan texnologiyalarga egadir.

O'rta Yevropa sanoat tarkibida ishlov beruvchi sanoat mashinasozligi va uning o'ta yangi tarmoqlari¹ – elektronika, aniq mexanika va optika, EHMLar, yadro reaktorlari, energetika xo'jaligi (ayniqsa EHMLar uchun), qora metallurgiya (100-110 mln. t.), rangli metallurgiya (alyumin, mis, qo'rg'oshin, rux va boshq.), kimyo (klassik tarmoqlar bilan birgalikda neft-kimyo va boshqa ishlab chiqarish), yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. O'rta Yevropa mamlakatlari yuksak darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, ya'ni agrobiznes tuzilmalariga ega. Yuqori darajada agrotexnika, kimyolashtirish va texnik qurollanish oqibatida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsulotlari mahsuldorligining boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqoriligi aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasida ham ko'rinadi. CHorvachilik, ayniqsa, sut-go'sht yo'nalishidagi chorvachilik (submintaqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi go'sht yetishtirishning 25% va hayvon yog'ining 50% ni yetkazib beradi) taraqqiy etgan bo'lib, yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlari eksportga chiqariladi. Ayniqsa, ziroatchilik va chorvachilik Frantsiya, Niderlandiya va GFRda juda rivojlangan.

¹ Dunёдаги энг йирик ЭХМ ишлаб чиқарадиган завод ГФРда жойлашган. Субминтақа мамлакатлари йилига 11-12 млн. дона энгил автомобиллар ишлаб чиқаради, халқаро машинасозлик маҳсулотлари экспортининг 1/3 қисмидан то 2/5 қисмига қадарини етказиб беради.

Transporti. Submintaqa barcha turdagi aloqa yo'llari va transport vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi jihatidan dunyoning boshqa hududlaridan ajralib turadi.

Frantsiya, Niderlandiya va Irlandiya dengiz transporti hissasiga yuk aylanmasining 80%, Buyuk Britaniyaga esa 90% to'g'ri keladi. Zamonaviy va o'ta zamonaviy havo, avtomobil va temir yo'l transporti tizimiga ega. Quvur transporti uzunligi 12000 km dan ortadi.

Rekratsiya geografiyasi va turizm. Go'zal tabiiy manzara rekreatsion resurslar, tarixiy va arxitektura yodgorliklariga boy shaharlar va boshqa diqqatga sazovor joylar turizm biznesining (yiliga 70 mln.dan ortiq turistlar keladi) rivojlanishiga olib keldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Submintaqa iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy aloqalar katta o'rin tutadi. Submintaqa eksportini tayyor sanoat, iste'mol va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (Frantsiya va Niderlandiya, qisman Buyuk Britaniya), importini – energiya resurslari (neft va tabiiy gaz) sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, yarim fabrikatlar, qisman mashina va jihozlar tashkil qiladi. AQSH va Kanada, Yaponiya, shuningdek, boshqa iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar (Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi) hamda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari rivojlanib bormoqda.

• SHimoliy Yevropa

SHimoliy Yevropa submintaqasi tarkibiga SHvetsiya, Norvegiya va Daniya qirolligi, Finlyandiya va Islandiya respublikalari kiradi. Maydoni 1257,2 ming km², aholisi 25,3 mln. kishi. Iqtisodiy-geografik o'rni qulay bo'lib, qisqa masofada xalqaro dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega. Bu xususiyat submintaqa mamlakatlari iqtisodiyotida o'z ifodasini topgan.

SHvetsiyada sifatli temir rudasining yirik zahiralari, mis, qo'rg'oshin, rux va vol'fram rudalari, Finlyandiyada mis va titan-magnitet rudalari mavjud. Yoqilg'i resurslariga ancha kambag'al. XX asrning 70-yillarida SHimoliy dengizning janubiy sohil bo'ylarida (Norvegiya) neft va tabiiy gaz zahiralari topildi va

intensiv foydalanish boshlandi. Daniyadan boshqa mamlakatlarda gidroresurslardan keng foydalaniladi.

Submintaqa chuchuk suv bilan to'la ta'minlangan. Finlyandiya va SHvetsiya davlatlari o'rmon resurslariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. O'rmon resurslari Finlyandiya iqtisodiyotida (yuqori sifatli qog'oz tayyorlash) sezilarli o'rin tutadi.

Mavjud agroiklimiy shart-sharoitlar va tuproq qoplamining qishloq xo'jaligi uchun bir muncha noqulayligi submintaqa mamlakatlarida haydaladigan yerlar maydonlarining notekis taqsimlanishiga sabab bo'lgan. CHunonchi, Daniyada 60% maydon haydaladi, boshqa mamlakatlarda bu holat 2-8, Islandiyada esa 1% ga ham yetmaydi.

Tabiiy rekreatsion resurslar o'ziga xos, ayniqsa Islandiya geyzerlar va «harakatdagi vulqonlar» mamlakati sifatida ajralib turadi. Katta hududlar inson oyog'i «tegmagan» bo'lib, bu yerlarda qo'riqxonalar, rezervatlar va turistik-rekreatsion mintaqalar barpo etilgan.

Aholisi. SHimoliy Yevropa aholisi etnik jihatdan bir xil. Roman-german tillar oilasiga kiradi, fin va saamlar esa ural tillar oilasining fin guruhini tashkil qiladi.

Tabiiy o'sish nihoyatda past bo'lib, har 1000 kishiga 2-3 kishi, Islandiyada esa 10 kishidan iborat. Ayni vaqtda, submintaqa aholining o'rtacha umr ko'rishi jihatidan dunyoda eng yuqori (75-78 yosh) ko'rsatkichga ega.

Urbanizatsiya darajasi ancha yuqori bo'lib, Finlyandiyada 62,0%, Daniyada 72,0%, Norvegiyada 79,0%, SHvetsiyada 84,0%, Islandiyada 93,0% ni (Daniya va Islandiyada 200 va undan ortiqroq, SHvetsiya va Norvegiyada 250 tadan ortiq kishi yashaydigan aholi qo'rg'onlari shahar maqomiga ega) tashkil etadi. Kichik shaharlar ko'p. Yagona millioner shahar Kopengagen (1,6 mln. kishi) yoki Daniya aholisining 35% ga yaqini, Islandiya poytaxti Reykjavikda 90 ming kishi yoki mamlakat aholisining 50% to'plangan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga Islandiyada 3 kishi, Daniyada 127 kishi va SHvetsiyada 20 kishidan iborat.

Xo'jaligi. SHimoliy Yevropa mamlakatlari dunyo iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Submintaqada iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisining 0,8% yashagani holda, 2,2-2,3% sanoat mahsuloti qiymati, savdo flotining 12-13%, tashqi savdo aylanmasining 5% to'g'ri keladi.

Sanoati. SHimoliy Yevropa mamlakatlari sanoati tarmoq tarkibida ishlov beruvchi sanoat yetakchi mavqega ega. Ayni vaqtda mineral xom ashyo qazib chiqarish, o'rmon xo'jaligi ham juda rivojlangan. Sanoat korxonalari asosan SHvetsiya, Norvegiya va Finlyandiyaning janubiy rayonlaridagi port shaharlarida to'plangan.

Energetika mahalliy va import (neft va mazut) resurslarga tayanadi. Norvegiya va Islandiyada elektr energiyasi hosil qilish deyarli 100%, SHvetsiyada 50% va Finlyandiyada 33% GESlar hissasiga to'g'ri kelsa, SHvetsiya va Finlyandiyada AESlar (mahalliy uran rudasi asosida) muhim o'rin tutadi. Norvegiya dunyoda aholi jon boshiga elektr energiyasi hosil qilish bo'yicha (20 ming kVt/soat) birinchi o'rinda turadi. Islandiya uchinchi o'rinda (Kanadadan so'ng 13 ming kVt/soat), SHvetsiya esa 4-o'rinda va Finlyandiya 6-o'rinda (AQSHdan so'ng) turadi.

SHvetsiya, Finlyandiya va Norvegiyada rivojlangan qora metallurgiya, ayniqsa, yuqori sifatli po'lat eritish, rangli metallardan esa magniy, alyuminiy, oq nikel, oq mis, titan va kobalt kontsentratlari ishlab chiqariladi.

Submintaqa sanoati tarkibida mashinasozlik yetakchi sohadir. Mashinasozlikda kemasozlik (iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ixtisoslashgan bosh yo'nalish) alohida o'rin tutadi. Mashinasozlikning yangi tarmoqlari – SHvetsiya, Finlyandiya va Daniya mamlakatlarida juda tez taraqqiy etmoqda.

Kimyo sanoatida klassik tarmoqlar (o'rmon-kimyo mahsulotlari, mineral o'g'itlar, xlor, kislotalar, sodalar, sintetik ammiak va boshq.) hamda elektrokimyo (Norvegiya) va neft-kimyo tarmoqlari rivojlangan.

Submintaqa xalqaro mehnat taqsimotida yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati mahsulotlari (SHvetsiya va Finlyandiya, Norvegiya)

ishlab chiqarishdan iborat murakkab majmua shakllangan. Aholi jon boshiga qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha Finlyandiya (700 kg.dan ortiq) dunyoda birinchi o'rinda, SHvetsiya esa uchinchi o'rinda (Kanadadan so'ng) turadi.

Oziq-ovqat sanoati mahalliy qishloq xo'jaligi va baliqchilik asosida rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi yirik, o'rtacha va kichik fermer xo'jaliklaridan iborat bo'lib, donli ekinlar, qand lavlagi, kartoshka, sabzavot va yem-xashak ekinlaridan yuqori hosil olinadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatida intensiv chorvachilik (qariyb 80%) yetakchi mavqega ega. CHorvachilikda sut, go'sht (cho'chqachilik va parrandachilik), Islandiyada go'sht-jun yo'nalishlari rivojlangan. CHorvachilik ayniqsa, Daniyada kuchli rivojlangan bo'lib (aholi jon boshiga yiliga bir tonnadan ortiq sut ishlab chiqaradi), go'sht va tuxum eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda, hayvon yog'i va pishloq eksporti bo'yicha ikkinchi-uchinchi o'rinda turadi.

Transporti. SHimoliy Yevropa mamlakatlarida (Islandiyadan tashqari) deyarli barcha turdagi transport tizimi rivojlangan. Tashqi savdo aloqalari dengiz floti orqali amalga oshiriladi. Norvegiya floti (25 mln br. reg. t) dunyoda beshinchi o'rinda turadi va «dengiz kirakashi» nomini olgan. Temir yo'l transporti (shuningdek, parom orqali boshqa mamlakatlar bilan ham bog'langan) va avtotransport ichki aloqalarda va havo transporti esa tashqi aloqalarda (Skandinaviya aviakompaniyalari birlashmasi - «SAS») muhim o'rin tutadi.

Rekratsiya va turizm. SHimoliy Yevropa mamlakatlarida «Yovvoyi tabiat», go'zal va takrorlanmas tarixiy shaharlar, madaniy obidalar ko'plab xorijiy turistlarni (yiliga 20 mln.dan ortiq) o'ziga jalb qiladi. SHvetsiya, Norvegiya va Finlyandiyaning janubiy qismlari, poytaxt-shaharlar jumladan, Kopengagen va 70-yillardan boshlab Islandiya, Norvegiya va SHvetsiyaning shimoliy rayonlari xalqaro turizm mintaqasiga aylandi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. SHimoliy Yevropa mamlakatlari tashqi iqtisodiy aloqalarda juda faol. Aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi jihatdan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida oldingi o'rinda turdi. Eksportda

yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati mahsulotlari (SHvetsiya dunyoda qog'oz va karton eksport qilishda birinchi o'rinda, tsellyuloza bo'yicha ikkinchi o'rinda, yog'och, arralanuvchi mahsulotlar va temir rudasi eksporti bo'yicha esa to'rtinchi o'rinda turadi), ruda va uning kontsentratlari, rangli metallar, dengiz kemalari, mashina va jihozlar, importda esa – suyuq yoqilg'i, sanoat xom ashyolari va yarim fabrikatlar, mashina, avtomobil, turli jihozlar, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari muhim o'rin tutadi.

• **Janubiy Yevropa submintaqasi.**

Mintaqa tarkibiga 9 ta mustaqil davlat Italiya, Portugaliya, Gretsiya, Malta va San-Marino Respublikalari, Ispaniya qirolligi, Andorra va Monako knyazligi, Vatikan papa davlati va Buyuk Britaniyaga qarashli Gibraltar (Evropadagi yagona mustamlaka hudud) kiradi. G'arbiy Yevropa mintaqasining 29% hududi va 31% aholisi sub mintqa ulishiga to'g'ri keladi. Maydoni 1030,8 ming km², aholisi 128,8 mln kishi (2008 yil, iyul).

Iqtisodiy-geografik holati juda qulay bo'lib, a) Yevropadan Osiyo, Afrika va Avstraliyaga boradigan bosh dengiz yo'llarida, Ispaniya va Portugaliya esa Markaziy va Janubiy Amerikaga boradigan dengiz yo'llari ustida; b) iqtisodiy rivojlangan O'rta Yevropa, SHimoliy Afrika va Yaqin SHarq mamlakatlari oralig'ida joylashganligi, xalqaro iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatlarining kattaligi bilan ajralib turadi.

Janubiy Yevropaning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi birmuncha yuqori bo'lsa-da, juda notekis joylashgan. Italiya foydali qazilmalarga birmuncha boy. Ayni vaqtda, yoqilg'i-energetika resurslari bilan juda bo'sh ta'minlangan bo'lib, neft va tabiiy gaz deyarli yo'q. Ispaniya va Italiya gidroresurslarga boy bo'lib, deyarli o'zlashtirilgan. Pireneya va Alp tog'larida o'rmon massivlari keng tarqalgan bo'lsada, qolgan hududlarda o'rmonlar 10% dan oshmaydi.

Janubiy Yevropaning tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini, birinchi navbatda ziroatchilikni rivojlantirish uchun juda qulay. Iqlimi bir muncha qurg'oqchil bo'lib, ayniqsa, Ispaniya, Gretsiya va Italiyaning janubida bu yaqqol ko'rinadi. Aholi jon boshiga suv oqimi (yiliga o'rtacha) 3000 m/kub bo'lib, ayrim Yevropa

mamlakatlardan yuqori bo'lsada, suv taqchilligi (bug'lanish va mavsumiy holat tufayli) mavjud.

Tabiiy-rekreatsion resurslarga boy. Issiq dengiz suvlari, minglab kilometr ga cho'zilgan qumli plyajlar, o'simlik olami, «ko'zni qamashtiradigan» landshaft, ko'plab dengiz va tog' kurortlari, alpinizm va tog' sportining rivojlanganligi bilan shuhrat qozongan. Ayni vaqtda, tabiat kuchli antropogen ta'sirga uchragan bo'lib, tabiatni qo'riqlash sohasida katta tadbirlar majmuasini amalga oshirishni taqozo qiladi.

Aholisi. Ispaniyadan tashqari deyarli barcha hududlar aholisining etnik tarkibi bir xil. Ko'pchilik aholi roman tillar gruppasiga kirsada, semit gruppasiga kiruvchi mal'taliklar va alohida gruppani tashkil qiluvchi greklar mavjud. Demografik jarayon tabiiy o'sish sur'atlarining birmuncha yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu holat aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan ham bog'liqdir. O'rta va SHimoliy Yevropa mamlakatlariga nisbatan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ancha past. SHuningdek, Janubiy Yevropa mamlakatlari O'rta Yevropa mamlakatlariga doimiy ishchi kuchi yetkazib beradigan hududdir. Urbanizatsiya darajasi Portugaliyada 55%, Gretsiyada 60%, Italiyada 68%, Ispaniyada 77% bo'lsa, Mal'tada 94% dan iborat. Madrid, Afina, Barselona va Lissabon millioner shaharlardir (Mitti davlatlar – Manakoda 1 km² ga 34000 kishi to'g'ri kelsa, Andorra tog'li agrar mamlakat bo'lib, 1 km² ga 182 kishi to'g'ri keladi).

Xo'jaligi. Janubiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan O'rta va SHimoliy Yevropa mamlakatlaridan farq qiladi. Agar Italiya rivojlangan yettilikka kirsada Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Mal'ta, Monako va boshqa mamlakatlar iqtisodiy jihatdan o'rtacha rivojlanganligi bilan ajralib turadi¹.

Sanoati. Italiya, Ispaniya, Gretsiya va Portugaliya hissasiga iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 5,5-5,6% to'g'ri keladi. Sanoat tarkibida ishlov beruvchi sanoat yetakchi o'rin tutadi. Ayni vaqtda, Italiyada yirik qazib beruvchi sanoat ham rivojlangan. Janubiy

¹ Митти давлатлар халқаро хўжалик тизимида молия-кредит ва банк тизими жиҳатдан етакчи мавқега эга.

Yevropa mamlakatlari energetikasi import neftga asoslangan. Neftni qayta ishlovchi zavodlar yillik quvvati 300 mln. tonnadan ortadi. Energobalansda GESlar hisssasi katta (Italiyada 33%, Ispaniyada 50% va Portugaliyada 60%), metallurgiya va rangli metallurgiya (mis, qo'rg'oshin-rux va boshqalar) rivojlangan. Mashinasozlikda qadimgi tarmoqlar bilan bir qatorda yangi tarmoqlar (dengiz kemalari, avtomobillar 3 mln.dan ortiq) ham sezilarli darajada rivojlangan. Kimyo sanoatida kislotalar, sodalar, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi hamda neft-kimyo, qurilish industriyasi (Italiya) yuqori sur'atda rivojlanmoqda (ayniqsa tsement ishlab chiqarish yiliga 90-100 mln. tonna). Mintaqa iqtisodiyotida yengil, ayniqsa, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati muhim ahamiyatga egadir.

Janubiy Yevropa mamlakatlarida XX asrning 60-70-yillaridan boshlab import xom ashyo va eksport yo'nalishi asosida port shaharlarda port-sanoat majmualari (Afina-Pires bilan, Lissabon, Ispaniyada Barselona, Portugaliyada Portu), Italiyada mamlakatning shimoliy qirg'oq bo'yida yirik sanoat aglomeratsiyasida to'plangan bo'lsa, ichki rayonlarda tog'-kon va metallurgiya sanoati asosida yirik sanoat rayonlari shakllandi.

Qishloq xo'jaligi. Ziroatchilikda donli ekinlar (bug'doy, makkajo'xori, arpa, sholi), bog'dorchilik va uzumchilik, sabzovot yetishtirish hamda chorvachilik rivojlangan. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yetishtirilgan 33% uzum, 50% uzum vinosi, G'arbiy Yevropadagi paxta, tsitrus mevalar, zaytun va sholining deyarli 100% submintaqa hissasiga to'g'ri keladi.

Transporti. Submintaqada eng rivojlangan transport turi dengiz transportidir, shuningdek, avtomobil, neft va gaz quvurlari, temir yo'l va havo transporti iqtisodiyotda sezilarli rol o'ynaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Janubiy Yevropa mamlakatlari xalqaro savdoda juda katta o'rin tutadi. Asosiy savdo sheriklari Yevropa Ittifoqi mintaqasidagi mamlakatlar, AQSH, rivojlanayotgan mamlakatlar hamda XX asr 90-yillaridan boshlab bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlardir. Rossiya bilan savdo aloqalari kengaymoqda. Eksportga qishloq xo'jaligi mahsulotlari (mevalar), oziq-

ovqat va yengil sanoat mahsulotlari, ruda va metall kontsentratlar, dengiz kemalari, avtomobillar va boshqa mashinasozlik mahsulotlari chiqaradi.

Import neft va neft mahsulotlari, temir rudasi, mashina va jihozlar, oziq-ovqat (bo'g'doy) mahsulotlaridan iborat.

SHarqiy Yevropa mintaqasi

Maydoni –1166,4 ming km², Aholisi –118,7 mln kishi (2008 yil, iyul)

SHarqiy Yevropa mintaqasi tarkibiga 14 ta davlat kiradi. G'arbiy Yevropa mintaqasidan farqli o'laroq barcha mamlakatlar davlat tuzilishiga ko'ra respublikadir. XX asr oxirida bu davlatlar murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, ya'ni sotsialistik tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish va yangi mustaqil davlatlarni (Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi va CHexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi o'rnida) yuzaga kelishi bilan bog'liq holatlarni boshdan kechirdi. Mintaqadagi barcha davlatlarning iqtisodiy-geografik o'rni g'oyat qulay bo'lib, birinchidan, barcha davlatlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan chegaradosh va qo'shnichilik holati, ikkinchidan, rivojlangan suv yo'liga (Boltiq, Qora dengiz portlari, Dunay, Oder daryolarining xalqaro ahamiyati) egaligi; uchinchidan, Rossiya va Osiyoni G'arbiy Yevropa bilan bog'lovchi temir yo'llar, avtomagistrallar hamda xalqaro iqtisodiy tuzilmalarning (neft va gaz quvurlari) kesib o'tishi va to'rtinchidan, tashqi savdoni rivojlantirish, xalqaro ichki iqtisodiy integratsiya jarayonlarida qatnashish uchun qulay shart-sharoitlar (G'arbiy Yevropa-Rossiya-Osiyo) mavjudligi bilan ajralib turadi,

SHarqiy Yevropa mamlakatlari yuqori tabiiy-resurs salohiyatiga ega bo'lsada, ayrim resurslar turli mamlakatlar bo'yicha notekis joylashgan. Masalan, Bolgariya, Polsha, Ruminiya kabi mamlakatlar tabiiy resurslarga (toshko'mir, neft va tabiiy gaz, temir rudasi, polimetall rudalar) nisbatan boy, Vengriya esa tabiiy resurslar bilan birmuncha bo'sh ta'minlagan. Yer resurslari, ayniqsa, haydaladigan yerlar Polsha, Vengriya, CHexiya, Bolgariyada yer fondining 50%

dan ortig'ini tashkil qilsa, Serbiya, CHernogoriya, Xorvatiya, Sloveniya, Slovakiya kabi mamlakatlarda 30% dan oshmaydi. Ayni paytda mavjud agroiklimiy omillar deyarli barcha mamlakatlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay.

SHarqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida Ruminiya (62,2 mlrd kVt/s) CHexiya, Serbiya, Xorvatiya, Sloveniya va boshqa suv resurslariga boyligi (Dunay, Tissa) bilan ajralib turadi. SHu bilan birga Pol'sha, Bolgariya - Yevropada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daryo oqimi jihatidan (yiliga 1800 m³) oxirgi o'rinlardan birida turadi.

Aholisi. SHarqiy Yevropa mamlakatlaridagi demografik jarayon tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining (Albaniyadan tashqari) pastligi bilan izohlanadi. Natijada, SHarqiy Yevropadagi mamlakatlarning ko'pchiligida keyingi o'n yillikda mehnatga layoqatli aholi soni ham qisqardi. Yoshlar salmog'ining va qariyalar, nafaqaxo'rlar salmog'ining (barcha aholining 17%) ortishi kuzatilmoqda. SHarqiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida tug'ilishni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda, ishsizlik 2,9% dan (CHexiya) 15% gacha va undan yuqoridir (Bolgariya, Pol'sha). SHarqiy Yevropa mamlakatlarida aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 69 kishidan (Bolgariya) 112 kishiga qadar (Pol'sha). Urbanizatsiya bir muncha yuqori bo'lib, Varshava, Praga, Buxarest, Bratislava, Sofiya shaharlari - millioner shaharlardir. Pol'sha, CHexiya, Vengriya, Ruminiya va Bolgariyada 20 dan ortiq shahar aglomeratsiyalari mavjud.

Xo'jaligi. SHarqiy Yevropa mamlakatlari markazlashgan boshqaruv iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Davlatlar «talvasali davolash» kontseptsiyasidan voz kechib, bugungi kunda uzoq muddatli iqtisodiy strategik o'zgarishlarini o'z ichiga olgan – iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, moliya bozorlarini rivojlantirish, bandlik muammosini hal qilish, ijtimoiy himoya va inson huquqlarini himoya qilish siyosatini amalga oshirmoqdalar.

SHarqiy Yevropa mamlakatlari XX asr 90-yillarining oxirlarida jahon yalpi ichki mahsulotining 2-2,5% berdi. Mintaqaga xalqaro eksportning 1,4% va xalqaro

importning 4,5%, dunyo bo'yicha hosil qilinayotgan elektr energiyasining 3,9%, qazib chiqarilayotgan ko'mirning 9,1% to'g'ri keladi.

Sanoati. SHarqiy Yevropa mamlakatlari sanoat tarkibi sotsializm davrida va O'YOK¹ doirasida ustivorlik og'ir sanoatga, mashinasozlikka qaratilgan edi.

1988 yil islohotlar boshlanishi davrida sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi hisyasi Ruminiyada 61%, Bolgariyada 58%, CHexoslovakiyada 57%, Pol'shada 52% va Vengriyada 36% ni tashkil qilgan. Mintaqadagi mamlakatlarda amalga oshirilgan islohotlar, bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida 2000 yilda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda sanoatning hisyasi 25% dan 32,2% ga, qishloq xo'jaligining hisyasi 6,8%dan 12% va qurilishning hisyasi 7% dan 11% gacha oshdi.

Islohotlar davri mintaqa iqtisodiyotida birinchi navbatda sanoat ishlab chiqarishida murakkab kechdi. Avvalo, og'ir sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish keskin qisqardi. CHunki, bu jarayon bir tomondan yirik korxonalarning SSSR va O'YOK mamlakatlari bilan aloqalarning uzilishi oqibatida amalda xom ashyo mahsulotlari va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorlarning yo'qolishi hamda davlat tomonidan beriladigan imtiyozdan mahrum bo'lish bilan bog'liq bo'ldi. Ikkinchidan, yuksak texnologiyaga asoslangan elektrotexnika va elektronika korxonalari G'arbning arzon va yuqori sifatli mahsulotlari bilan raqobatlasha olmasligi aniq bo'ldi.

Ayni vaqtda, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar to'qimachilik, oziq-ovqat, yog'ochni qayta ishlash, poligrafiya sanoati tarmoqlari bir muncha barqaror rivojlandi. CHunki, bu tarmoqlar katta investitsiya talab qilmaydi va arzon ishchi kuchi tufayli G'arb bilan raqobatlasha oladi. Ammo, bu tarmoqlardagi bandlik darajasi yuqoriligi ham ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan emas, balki boshqa tarmoqlarga nisbatan kam "zarbaga" uchrashi bilan bog'liqdir.

¹ ЎИЁК (ўзаро иқтисодий ёрдам кенгаши социалистик давлатлар ўртасида халқаро иқтисодий ташкилот бўлиб 1949 йилда тузилган ва 1991 йили тарқалиб кетган).

Mintaqa mamlakatlari sanoat ishlab chiqarishida tarmoq tarkibining tenglashishi va yaqinlashuv jarayoni kuzatilib, ishlab chiqarishning tabaqalanishi negizida yangi ishlab chiqarish turlari rivojlanmoqda. Sanoat diversifikatsiyasi kuchayib, ishlab chiqarishning o'zaro aloqalari chuqurlashmoqda.

Sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar avvalo investitsiya, ilmiy tadqiqot va konstruktorlik tajriba ishlari yuqori bo'lgan mashinasozlik sanoatida yuz berdi. Natijada, yangi samarali texnika va texnologiya negizida an'anaviy tarmoqlar asoslari hamda tarkibi o'zgarmoque. Ilm talab tarmoqlardan avtomatika ishlab chiqarishi, EHM, radiotexnika, kosmik va lazer texnikasi kabi sohalar jadal rivojlanmoqda.

Metallurgiya sanoatida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi, bugungi kunda mintaqada g'oyat yuqori sifatli po'lat va prokat mahsulotlari (CHexiya va Pol'sha) ishlab chiqarilmoqda.

Sanoatning bir qator tarmoqlarida esa qayta qurish (reorganizatsiya) va restrukturizatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Jumladan, uzoq yillar turg'unlikni boshidan kechirgan Pol'sha ko'mir sanoatida 1995 yildan boshlab jonlanish yuz berdi. Mintaqadagi to'qimachilik, oziq-ovqat va mebel'sanoati yangi texnika va yuksak texnologik jarayonlarni qo'llash orqali o'z mahsulotlari bilan G'arbiy Yevropa bozorini zabt etishga urinmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Mintaqa mamlakatlari agrar siyosatining negizini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror va yuqori o'sishi asosida aholini to'la oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom ashyo bilan (birinchi navbatda oziq-ovqat sanoatini) ta'minlash tashkil etadi.

Mintaqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tizimida ishchi kuchlarining 25% band bo'lib, yalpi ichki mahsulotning 8% ta'minlaydi. ASMda esa 20% dan 30% ga qadar asosiy ishlab chiqarish fondlari va mehnat resurslari to'plangan bo'lib, yalpi ichki mahsulotning 20-40% ni yetkazib beradi.

Bugungi kunda SHarqiy Yevropa mamlakatlarida agrar ishlab chiqarishda chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqdaki, bu narxlar va tovar ishlab chiqarishning erkinlashuvi, yerga va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga

bo'lgan mulkchilik munosabatlari hamda agrobiznes tuzilmalarining faollashuvi bilan bog'liqdir.

SHarqiy Yevropa mamlakatlarida agrar sohaning bozorga o'tishida davlatlar deyarli bir-biriga o'xshash siyosatni amalga oshirishlariga qaramay, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish hajmi va sur'atlari, qishloq xo'jaligidagi xususiylashtirishning u yoki bu shakllarida o'zaro farqlar ham ko'zga tashlanadi.

CHunonchi, Vengriyada yerlarning oldi-sotdisi 1987 yildagi «Er to'g'risida»gi qonun (1988-1989 yillardagi tuzatish bilan) orqali amalga oshirildi. Ushbu qonun yer fondining bir qismini shaxsiy mulk sifatida berish orqali yer bozorining rivojlanishiga yo'l ochdi. Bugungi kunda Vengriya qishloq xo'jaligi islohotidagi bosh o'zgarishlar yerga bo'lgan mulkchilikni (birinchi navbatda shaxsiy mulk sifatida) rivojlantirish orqali dehqon-fermer xo'jaliklarini tashkillashga ko'maklashishdir. Bir vaqtning o'zida zarar bilan ishlovchi qishloq xo'jaligi kooperativlariga davlat yordami va buyurtmalari qisqarmoqda. Vengriyadagi qishloq xo'jaligining rivojlanishi nafaqat yirik qishloq xo'jaligi kooperativlarining, balki kichik ishlab chiqarishning (tamorqa va yordamchi xo'jaliklari) rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Pol'shada bozor iqtisodiyotiga o'tishda qishloq xo'jaligini rivojlantirish tajribasi qiziqarlidir. Pol'shada ASM yalpi milliy mahsulotning 1/4 qismini bermoqda va majmuaga jami mehnatda bandlarining 31%, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 35% to'g'ri keladi. Pol'sha qishloq xo'jaligining o'zagini doimo individual xo'jaliklar tashkil qilgan. Individual (shaxsiy) sektor uzoq vaqt 75-80% qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirgan bo'lib, 2/3 qism qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar shu sektorga to'g'ri keladi. Pol'sha agrar siyosatidagi o'zgarishlar samarali qishloq xo'jaligini rivojlantirish, xarajatlarni qoplash, qishloq va shahar aholisi daromadlarini tenglashtirishdan iborat. 1982 yildan bosqichma-bosqich individual xo'jaliklar tarkibini takomillashtirish siyosati natijasida 1990 yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi oshmoqda.

Pol'sha qishloq xo'jaligidagi amalga oshirilgan bozorga o'tish siyosati natijasida samarasiz xo'jaliklarning tugatilishi, ishlab chiqarish omili sifatida yer

bozorining faollashuvi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar - qishloq infratuzilmalari va servisi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlandi. Yirik dehqon xo'jaliklari (10 ga va undan ortiq yerlarga ega bo'lgan) hissassi va soni ortmoqda. Davlatning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olishi tashkiliy ravishda qisqarmoqda.

CHexiya va Slovakiyada asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish yirik xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish maqsadida daromad soliqlaridan ozod qilishdan iborat siyosat qo'llanilmoqda. Qishloq xo'jaligida sertarmoq rivojlanish, qishloqda sanoat korxonarini tashkillash, qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bolgariya, Serbiya, Sloveniya, Bosniya va Gertsegovina kabi mamlakatlarda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni va bozor munosabatlari jadal rivojlanib bormoqda.

SHarqiy Yevropa mamlakatlari rivojlangan temir yo'llar, avtomobil, suv transporti (Dunay daryosi, Qora dengiz, Adriatika va Boltiq dengizi), havo transportiga ega bo'lib, iqtisodiy-geografik o'rni va transport turlarining xalqaro tranzit darajasiga ko'tarilganligi hamda xalqaro transport infratuzilmalari – «Do'stlik» neft quvuri, "Qardoshlik" gaz quvuri va boshq. mintaqa iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'sish sur'atida iqtisodiy islohotlar boshlangan davrdan boshlab xizmat ko'rsatish sohalari, asosan moliya, noishlab chiqarish sohalari muhim rol o'ynab keldi. Ayni vaqtda, mintaqa mamlakatlari milliy iqtisodiyotida, tarkibiy siyosatida, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, uning tarmoq tarkibida, milliy daromad va boshqalarda o'zaro tafovut mavjud.

Mintaqa mamlakatlarida o'tgan asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab turizm rivojlanib bormoqda va milliy daromadda sezilarli o'rin egallamoqda. Pol'shada dengiz bo'yi, ko'llar bo'yi, tog'li mintaqalar, arxitektura va tarixiy obidalarga boy – Varshava, Krakov, Torun shaharlari, CHexiya va Slovakiyada

yuqori va quyi Tatra, Sudet, Karlova-Vari va Marianna-Lazne, shahar-muzey Praga, Vengriyada Budapesht shahri, Balaton ko'li, milliy parklar – Xartobod va Alfyol'd cho'llari, Ruminiyada Dunay del'tasi, Karpat tog'i, Bolgariyada Qora dengiz qirg'oq bo'yi, (Quyoshli plyaj, Oltin qum) Rila-Rodop tog' massivlari, Sofiya, Plovdiv, Pleven, Gabrova va boshqa shaharlardir. Serbiya, Sloveniya, Bosniya, va Gertsogovinada Alp, Adriatika, Dnepr, Rodop, Pannon - Dunay bo'yi turistik rayonlari xalqaro turizmning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Mintaqa mamlakatlarida bozor munosabatlarining chuqurlashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatida ham mutlaqo yangi tamoyillarni yuzaga keltirdi. Bunday o'zgarishlar avvalo «ochiq» iqtisodiy siyosatni amalga oshirish bilan bog'liqdir. Mintaqa mamlakatlari tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga, G'arbiy Yevropa mintaqasi bilan chuqur integratsiyalashuvga urinmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi islohotlar maqsadi tashqi iqtisodiy aloqalardagi davlat monopolizmini tugatish, barcha xo'jalik sub'ektlariga tashqi bozorga chiqish huquqini berish, egri tartiblash vositalaridan (bojxona, soliq stavkalari) foydalanish, milliy valyuta konvertatsiyasiga erishishdan iborat. Natijada, barcha yuridik shaxslarga tashqi savdo qilish huquqini berish oqibatida tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlar soni keskin o'sdi. Agar 80-yillar oxirida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi firmalar soni 100 dan ortmagan bo'lsa, 90-yillar oxirida bunday firmalar CHexiyada 1,5, Ruminiyada 2,5 mingdan, Bolgariyada 4 mingdan, Vengriyada 11 mingdan ortib ketdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi umumiy xususiyat eksport va importning yuqori darajada erkinlashuvi bo'ldi. Masalan, CHexiyada davlat letsenziyasi eksportda 15% va Ruminiyada 20% xolos.

Eksport mashinasozlik mahsulotlari chiqarishga e'tibor kuchaymoqda va umumiy eksportda mamlakatlar bo'yicha 30% dan 60% (iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga eksportda esa 7-10%) ga qadarni tashkil qiladi.

Import mashina va jihozlar (30% dan 70% ga qadar), shuningdek, neft, gaz, toshko'mir, temir rudasi, cho'yan va rangli metallardan ibrat.

SHarqiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Ittifoqi va Xalqaro Savdo Tashkiloti (XST) a'zosi, 1993 yildan boshlab Polsha, CHexiya, Slovakiya, Ruminiya, Vengriya, Bolgariya, Sloveniya bilan O'zbekistonning diplomatik va savdo aloqalari rivojlanib bormoqda.

Xulosa

Dunyo siyosiy xaritasida Yevropaning o'z o'rni bor. XX asrning 80-yillarida bu yerda 32 ta suveren davlat mavjud bo'lgan. 90-yillarning dastlabki davrida esa mamlakatlarning umumiy soni 40 ga yetdi. Sobiq Ittifoq tarkibidan Boltiqbo'yi davlatlarining ajralib chiqishi, Yugoslaviya va Chexoslovakiyaning bo'linishi qit'ada mamlakatlar sonini ko'payishiga sabab bo'ldi.

1989- yilda ikki nemis davlatlarining qo'shilib, yagona Germaniya Federativ Respublikasining barpo qilinishi qit'a va jahon siyosiy xaritasida katta voqea bo'ldi.

XX asrning so'nggi 10 yilida Yevropa va jahon siyosiy xaritasida yana ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. SSSR parchalanib, 10 dan ortiq yangi suveren davlatlar vujudga keldi. Shulardan Yevropa davlatlari qatoriga Ukraina, Belarus va Moldova qo'shildi. Shunday qilib, Yevropada yangi XXI asr boshida (Rossiyani hisobga olmaganda) jami 45 mamlakat mavjudligi qayd etildi.

Yevropa kichik mamlakatlar o'lkasidir. Aynan ana shu qit'ada jahondagi «mitti» davlatlar (Andorra, San-Marino, Monako, Vatikan, Lixtenshtey (n)ning ko'pchiligi joylashganligi so'zimizga dalil bo'lishi mumkin. Mazkur davlatlardan tashqari hududi nisbatan kichik mamlakatlardan 10 tasining har birining maydoni 50 ming kv km dan ham kichikdir. Shular qatoriga Belgiya, Niderlandiya, Daniya (Grenlandiya orolini hisoblamaganda), Shveysariya, Slovakiya, Malta, Makedoniya, Albaniya va Estoniya kiradi (taqqoslash uchun bir Moskva oblasti maydoni 47 ming kv km ni tashkil etishini aytib o'tish kifoyadir).

Qit'ada 10 ta mamlakat hududi 50 mingdan 100 ming kv km gacha boradi. Bunga Islandiya, Irlandiya, Avstriya, Vengriya, Chexiya, Latviya, Litva, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Portugaliya mamlakatlaridan iboratdir. Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya, GFR, Italiya, Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasi va Gretsiyaning, ya'ni jami 12 davlatning maydoni 100 mingdan 500 ming kv km gacha o'zgaradi. Faqat Fransiya va Ispaniya davlatlarining hududi 500 ming kv km dan oshadi.

Yevropada har xil shaklga ega bo'lgan mamlakatlar mavjud. Norvegiya qit'ada hududi meridian yo'nalishi bo'yicha eng uzun (1750 km) joylashgan mamlakatdir.

Shunday mamlakatlar qatoriga yana Shvetsiya (1600 km), Finlandiya (1160 km), Fransiya (1000 km), Buyuk Britaniya (955 km), GFR (850 km) kiradi. Shu bilan birga Bolgariya va Vengriyada chekka nuqtalar orasidagi masofa 500 km dan oshmasligini aytib o'tish joizdir. Niderlandiyada esa bu ko'rsatkich atigi 300 km ni tashkil etadi.

Yevropa dunyodagi eng yirik iqtisodiy markazlardan biridir. Uning jahon YAMD dagi ulushi saikam 9 trln. dollarni yoki jami YAMDning salkam 1/3 qismini tashkil etadi. Yevropaga jami jahon savdo aylanmasining yarmidan ortiq qismi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha u jahonning boshqa regionlaridan ustun turadi.

Eng muhimi shundan iboratki, Yevropada jahon tarixida birinchi bor Yevropa Ittifoqi doirasida o'ndan ortiq davlatlar birlashtirilib, ulkan miqyosga ega bo'lib, yagona iqtisodiy va siyosiy makon shakllantirilmoqda.

Nafaqat bugungi kunda, balki kishilik jamiyati taraqqiyotining ko'p ming yillik tarixida ham Yevropani shartli ravishda 2 ta mintaqaga, ya'ni G'arbiy Yevropa va SHarqiy Yevropaga (Markaziy va SHarqiy yoki Markaziy-SHarqiy Yevropa) bo'lish mumkin (MDH mamlakatlariga nisbatan).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-tom., T., «O'zbekiston», 2000.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'usmiz. 9—tom., T., «O'zbekiston», 2001.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10—tom., T., «O'zbekiston», 2002.
4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12—tom., T., «O'zbekiston», 2004.
5. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13—tom., T., «O'zbekiston», 2005.
6. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadryat. 14—tom., T., «O'zbekiston», 2006.
7. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15—tom., T., «O'zbekiston», 2007.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T., «Ma'naviyat», 2008.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., «O'zbekiston», 2009.
10. Abdullaev.O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan 2002.
11. Atlas Mira stranni mira v kartax i faktax. M.: ZAO “kompaniya”, AST-PRESS. 1999.
12. Axmedov.E., Sayidaminova.Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma). T., 1998.
13. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. Rostov-, izd-vo Yuniti. 2007
14. Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejnyx stran/Pod red. V.P.Kolesova, M.I.Os'movoy. –M., 2000.
15. Strыgin A.V. Mirovaya ekonomika. –M., 2002.
16. Soibnazarov A. O'rgimchak to'ri. //“XXI asr” gazetasi, 2009 yil 23 aprel', № 17 (283)-son.
17. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1—14 jildlar. T., Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2006.
18. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plam. –T., 2007.
19. Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
20. Population Reference Bureau 2008 Word Population Data sheet.
21. Ohmae K. The Bordless World: Power and Strategy in the Interlinked Economy. - Fontana, 1990